

BADIIY ASARDA FARZANDSIZLIK MOTIVI**Eshmamatova Mohira***Navoiy Inovatsiyalar universiteti Surxondaryo**kampusi Filologiya va tillarni o'qitish**o'zbek tili yo'nalishi 401-guruh talabasi***Annotatsiya.**

Ushbu maqolada o'zbek xalq og'zaki ijodi va yozma adabiyotda muhim badiiy motivlardan biri bo'lgan farzandsizlik motivining badiiy, g'oyaviy va psixologik talqini tahlil etiladi. Farzandsizlik motivi inson hayotidagi eng chuqur ijtimoiy va ma'naviy ehtiyojlardan birining qondirilmasligi bilan bog'liq bo'lib, doston va badiiy asarlarda voqealar rivojiga kuchli ta'sir ko'rsatuvchi omil sifatida namoyon bo'ladi. "Alpomish", "Kuntug'mish", "Go'ro'g'li", "Rustamxon" dostonlari hamda yozma adabiyotdagi ayrim namunalar misolida farzandsizlik motivining syujet qurilishidagi o'rni, obrazlar ruhiyatini ochishdagi ahamiyati va falsafiy mazmuni ilmiy asosda tahlil qilinadi. Shuningdek, dostonlarning yaratilish davri, ularni ijro etgan baxshilar va yozib olingan yillarga oid ma'lumotlar keltiriladi. Motivlari farzandsizlik motivi xalq tafakkuri va milliy dunyoqarashda muhim estetik hodisa ekanini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar. Farzandsizlik motivi, xalq dostonlari, badiiy syujet, psixologizm, epik an'ana, baxshi ijodi, ilohiy sinov, fojia, estetik funksiya, obraz, folklor, yozma adabiyot, ota-ona timsoli, taqdir, ma'naviy qadriyat.

Kirish.

Badiiy adabiyotda motiv tushunchasi muayyan g'oya va mazmunni ifodalovchi barqaror badiiy unsur sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday motivlardan biri farzandsizlik motividir. U motiv asrlar davomida xalq og'zaki ijodi va yozma adabiyotda inson taqdiri, jamiyat bilan munosabati hamda ilohiy adolat haqidagi tasavvurlarni ifodalashda xizmat qilib kelgan. O'zbek xalq mentalitetida farzand avlod davomchisi, oilaning barqarorligi va jamiyatning mustahkamligi ramzi hisoblanadi.

Shu bois farzandsizlik holati ko'pincha fojia, sinov yoki ilohiy imtihon sifatida talqin etiladi. Ayniqsa, dostonlarda farzandsizlik motivi syujetning boshlanish nuqtasi bo'lib, qahramonning tug'ilishi va kelajakdagi qahramonliklarini tayyorlovchi badiiy asos vazifasini bajaradi.

O'zbek xalq dostonlarida farzandsizlik motivi.

"Alpomish" o'zbek xalq dostonlarining eng qadimiy va mashhur namunalaridan biridir. Doston muallifi aniq emas, u asrlar davomida xalq orasida og'zaki ijod shaklida yashab kelgan. Ilmiy manbalarga ko'ra, dostonning shakllanishi taxminan X–XI asrlarga borib taqaladi. U ilk bor 1922–1926-yillarda Fozil Yo'ldosh o'g'li, Ergash

Jumanbulbul o'g'li kabi baxshilardan yozib olingan. Doston boshida Boybo'ri va Boysari farzandsizligi tasvirlanadi, ularning ichki iztirobi, jamiyatdagi mavqeyi va farzandga bo'lgan ehtiyoji badiiy kuch bilan yoritiladi. Farzandsizlik bu yerda ilohiy sinov bo'lib, duolar qabul bo'lgach, Alpomishning tug'ilishi bilan syujet harakati boshlanadi. Demak, farzandsizlik motivi dostonning butun epik tizimini harakatga keltiruvchi asosiy omildir. "Kuntug'mish" dostoni ham xalq og'zaki ijodining muhim epik namunalardan biri bo'lib, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida shakllangan. Doston Ergash Jumanbulbul o'g'li tomonidan ijro etilgan va 1930-yillarda yozib olingan. Doston syujeti podshohning uzoq yillar farzandsiz bo'lib yashashi, uning ruhiy iztirobi va iltijolari tasvirlanadi. Farzandsizlik bu asarda podshohlik qudratiga qaramay inson o'jizligini ko'rsatadi. Kuntug'mishning tug'ilishi esa adolat, jasorat va qahramonlik timsoli sifatida talqin qilinadi.

"Go'ro'g'li" dostonlari turk xalqlari orasida keng tarqalgan epik majmuadir. O'zbek variantlari XI–XVII asrlarda shakllangan. Dostonlar turkumi Polvon Ergash baxshi, Fozil Yo'ldosh o'g'li kabi baxshilar tomonidan ijro etilgan va XX asr boshlarida yozib olingan. Go'ro'g'lining otasi Ravshanxonning farzandsizlikdan iztirob chekishi, ilohiy kuchlar orqali farzandga erishishi epik an'anaga xos holda tasvirlanadi. Bu motiv Go'ro'g'lining qahramonlik faoliyatiga tayanch vazifasini bajaradi.

"Rustamxon dostoni" ham xalq og'zaki ijodiga mansub bo'lib, unda farzandsizlik motivi fojiaiy ruhda ifodalanadi. Rustamning tug'ilishi ota-onaning uzoq yillik orzusi sifatida tasvirlanadi. Doston Mahmud Yamnurod o'g'li Polkan tomonidan ijro etilgan va 1940-yillarda yozib olingan.

To'gay Murodning "Oydinlar yurgan olamlar" asari o'zbek adabiyotidagi inson ruhiyatining eng teran qatlamlarini ochib beruvchi asarlardan biridir. Undagi farzandsizlik motivi shunchaki biologik yetishmovchilik emas, balki ijtimoiy fojia, ma'naviy yolg'izlik va taqdir sinovi sifatida talqin etiladi. Asar qahramonlari og'ir va qiyin sharoit uchun farzand shunchaki quvonch emas, balki hayotning.

Xulosa qilib aytganda, farzandsizlik motivi o'zbek xalq dostonlari va yozg'u adabiyotda, balki haqiqiy hayotda ham chuqur ilohiy o'tgan yitmoqiy va badiiy hodisadir. U faqatgina syujet unsuri emas, balki xalqning hayot haqidagi falsafiy qarashlarini ifodalovchi muhim estetik vositadir. Xalq orasida "Bolali uy bozor, bolasiz uy mozor" degan xalqona naqlari ham mavjud. Shuningdek, "Farzand borning ichi ochmas, farzandsizning o'zi dehmas" kabi xalq naqlari ham mavjud. To'gay Murod "Oydinlar yurgan olamlar" asarida inson qadri farzand bilan emas, uning ichki dunyosi, sabr-bardosh va muhabbati bilan o'lchanib chorlanganini ta'kidlash lozim. Farzandsizlik – bu jazo emas, balki insoniylik imtihonidir. Bu imtihon insonni farzandsizlik orqali .

Insoneylik, sadoqat, inson ma'naviy bir-biriga bo'lgan sof muhabbat, ikki qalbning bir-biriga bo'lgan mustahk sadoqati ham sinadi; qahramonlar va qahramonning farzandsizligi ularning fojiasi, balki ularning inson sifatidagi qadri va bir-biriga bo'lgan muhabbati bu fojialardan baland baland turishini isbotlaydi. Qahramon va qahramonning "aydindagi" yo'li – bu jismoniy davomchisi bo'lmasada, ma'nan olmas qolgan poklik yulidir. Asar yakunida, qahramonlarning aydinda, oppoq nur ichida go'yib bo'lishi ramziy ma'noga ega. Bu farzandsiz o'tayotgan fojiasi emas, balki ikki qalbning bir-biriga bo'lgan mustahk sadoqati tantanasidir. Bunday ramziy timsollar asarning umuminsoniy qiymatini bilgilovchi asosiy metafordir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati .

- 1.Karimov S,Yo'ldoshev Q.O'zbek folklori.Toshkent o'qituvchi -2010/
- 2.Imomov K, O'zbek xalq og'zaki ijodi.Toshkent: Fan 2008.
- 3.Rasulov A.Folklor va adabiyot munjsabati. Fan 2012.
- 4.Yo'ldoshev.Qosimov B.Adabiyotshunoslik nazariyasi.Toshkent. Akademnashr 2015.
- 5.Alpomish .O'zbek xalq dostoni.Toshkent .G'ofur G'ulom nomidagi nashriyot.1998.
- 6.Kuntug'mish dostoni. Toshkent. Fan 2005.
- 7.Go'ro'g'li turkumi dostonlari. Toshkent.Sharq 2006.
- 8.Rustamxon dostoni .Toshkent . Yangi asr avlodi 2007.
- 9.Quranov D. Adabiyotshunoslik lug'ati. Toshkent. Akademnashr 2013.
- 10.Tog'ay Murod. Oydinda yurgan odamlar.1980.